

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2026 Vol. 1

tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2026 Vol. 1

tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

BOSH MUHARRIR	
Shuhrat Sirojiddinov	
 BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI	
Karomat Mullaxo'jayeva	
 MAS'UL KOTIB	
Ozoda Tojiboyeva	
 TAHRIR HAY'ATI	
Karl Rayxl (Germaniya)	
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)	
Seyhan Tanju (Turkiya)	
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)	
Benedek Peri (Vengriya)	
Vahit Turk (Turkiya)	
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)	
Eunkyung Oh (Koreya)	
Nazef Shahrani (AQSh)	
Boqijon To'xliyev	
Muhammadjon Imomnazarov	
Bilol Yujel (Turkiya)	
Qosimjon Sodiqov	
Zulxumor Xolmanova	
Mustafa O'ner (Turkiya)	
Nurboy Jabborov	
G'aybulla Boboyorov	
Kimura Satoru (Yaponiya)	
Imran Ay (Turkiya)	
Aftondil Erkinov	
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)	
Rashid Zohidov	
Otabek Jo'raboyev	
Bulent Bayram (Turkiya)	
Qo'ldosh Pardayev	
Nodirbek Jo'raqo'ziyev	
Oysara Madaliyeva	
Hilola Nazirova	

MUNDARIJA	
MATNSHUNOSLIK	
Saidakbar Muhammadaminov Junglarning genezisi va regional xususiyatlari: adabiy to'plamdan fatvolar majmuyiga qadar	4
Ozoda Tojiboyeva "Favoyid ul-kibar"dagi farqli baytlar xususida	23
Sohiba Madirimova Avaz O'tar qo'lyozma devonlari tavsifi	37
Təranə Verdiyeva, Fərhad Mirzəyev Klassik Şərq İrsinin Vizual Təqdimatında Or. 2265 “Xəmsə” Əlyazmasının Yeri və Nizami Gəncəvinin Mədəni Fəlsəfəsi	64
Gulzira G'iyosiddinova Ojiz devoni qo'lyozmalari tavsifi	77
 LINGVISTIKA	
G'aybulla Boboyorov Oltinko'l bitiktoshlari: eski turkcha so'zlarning o'zbek tilida saqlanish holati	94
Jo'ra Xudoyberdiyev Chig'atoy tiliga oid ayrim mulohazalar	114
Tünzalə İsmayılova XIV – XV əsr qipçaq lüğətlərinə ümumi baxış	135

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

CONTENTS**TEXTOTOLOGY****Saidakbar Muhammadaminov**

The Genesis and Regional Features of Jong Collections: From Literary Anthology to Compendium of Fatwas 4

Ozoda Tojiboyeva

Regarding the Different Couplets in the Manuscript Sources of "Favoyid ul-kibar" 23

Sohiba Madirimova

Description of Avaz O'tar's Manuscript Divans 37

Təranə Verdiyeva, Fərhad Mirzəyev

The Place of the Or. 2265 "Khamisa" Manuscript in the Visual Representation of Classical Eastern Heritage and the Cultural Philosophy of Nizami Ganjavi (Artificial Intelligence-Based Analysis) 64

Gulzira Giyosiddinova

Description of the Manuscripts of Ojiz's Divan 77

LINGUISTICS**Gaybulla Boboyorov**

The Altin-Köl Runic Inscriptions: the State of Preservation of Old Turkic Words in the Uzbek Language 94

Jura Khudoyberdiev

Some Remarks on the Chigatai Language 114

Tunzale Ismayilova

General Overview of 14th-15th Century Kıpçak Dictionaries 135

“Favoyid ul-kibar” devoni manbalaridagi farqli baytlar xususida

Ozoda Tojiboyeva¹

Abstrakt

Alisher Navoiy devonlari atoqli olim Hamid Sulaymonov tomonidan tayyorlanib, nashrga tayyorlangan edi. Keyingi yillari Alisher Navoiy asarlarini oʻzida jamlagan kulliyotlardan foydalanish imkoniyati ortgani bois qiyosiy-matniy tekshirish ishlari ham ortib borilmoqda. Sh sabali barcha manbalarni qiyoslab oʻrganish, farqli jihatlarini aniqlash, har bir manbaning ilmdagi qimmatini koʻrsatishni bugungi ilm taqozo etmoqda.

Mazkur maqolada Alisher Navoiy lirikasi uchun eng ishonchli deb topilgan, Navoiy qoʻlyozmalari orasida moʻtabar sanalgan uch kulliyot – Ravon, Parij va Fotih nusxalari asosida “Favoyid ul-kibar” devonidagi gʻazallar qiyosiy tekshirilgan. Oʻrni almashgan gʻazallarning manbalari, joriy nashrda berilishi holati va sabablari asoslangan.

Kalit soʻzlar: *devon, kulliyot, qoʻlyozma, gʻazal, baytlar, joriy nashrlar.*

Kirish

Alisher Navoiy lirikasi mazmunan boy, sifat va son jihatidan salmoqli boʻlgani bois barcha zamonlarda ilmiy tadqiqotlar obyekti boʻlib kelmoqda. Alisher Navoiy devonlarining katta matnshunos olim Hamid Sulaymonov tomonidan tayyorlangani, akademik nashri chop etilgani fanga maʼlum. Oʻtgan yillar davomidagi buyuk shoirning jildlik Tanlangan asarlar toʻplami, Mukammal asarlar toʻplami nomi bilan tayyorlangan nashrlariga ham Hamid Sulaymonov nashri asos boʻldi. Zarur tuzatishlar ham ushbu matn asosida amalga oshirildi. Yillar davomida qayta toʻldirilgan, tuzatilgan nashrlar keng kitobxonlar ommasiga taqdim etib borildi. Albatta, bu nashrlarning ortida matnshunos olimlarning zalvorli mehnati yotibdi. Har bir soʻz, harf ustida olib borilgan mantiqiy tuzatishlar oʻz natijasini berdi – qancha-qancha nasriy bayonlar, tahlillar, ilmiy tadqiqotlar uchun asos manba boʻlib xizmat qildi. Bugungi matnshunoslik ilmi shu

¹ Tojiboyeva Ozoda Tohirovna – filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: ozoda@navoiy-uni.uz

ORCID-ID: 0000-0003-4742-8357

Iqtibos uchun: Tojiboyeva, O. T. 2026. “Favoyid ul-kibar”dagi farqli baytlar xususida”. *Oltin bitiglar* 1: 23 – 36.

ma'noda ustoz olimlar mehnatining ustiga qurilishi tabiiy hol.

Keyingi yillarda xalqaro munosabatlarning kengayishi, texnik imkoniyatlarning ortishi, ilmiy tadqiqot markazlarining ochiqlikka o'ta boshlaganligi va ilmiy-adabiy nashrlarning tezroq yetib kelishi natijasida ko'plab manbalar ilmiy iste'molga tobora kengroq tortila boshlandi. Bugun fanda mo'tabar hisoblangan Turkiyadagi 808 raqamli Ravon kulliyotining Gunay Kut [Külliyat-ı Nevayi, 2020] tomonidan faksimel nashrga tayyorlanishi, 316–317 raqamli Parij va 4056 raqamli Turkiyadagi Fotih nusxasidan foydalanish imkoniyati mavjudligi devon matnlari ustidagi tekshirishlarni osonlashtirdi.

“Favoyid ul-kibar” devoni matnlarini qiyosiy kuzatish natijasida har uch kulliyotdagi she'rlarda farqli baytlar mavjudligi aniqlandi. Bu farqlarni yuzaga keltirgan sabablarni ikki guruhga: a) baytlari tushib qolgan g'azallar; b) baytlari almashgan g'azallarga ajratgan holda o'rganish mumkin. Ular sirasida baytlarining o'rni almashgan g'azallar ham anchagina va bunday bayt almashinuvi g'azalning kompozitsion qurilishi hamda mazmuniga ham ta'sir ko'rsatgani seziladi. Qiyoslar davomida joriy nashr bilan manbadagi she'rlar o'rtasida farqlanayotgan baytlar olimlar bajargan tabdil ishlariga emas, asos qilib olingan qo'lyozmalarga bog'liq ekanligi aniqlandi. Shu ma'noda ustoz olimlar mehnatiga tanqidiy ko'z bilan qarab emas, aksincha, joriy nashrlarda yuzaga kelgan o'zaro farqli baytlarga qaysi manbalar asos bo'lganini aniqlash va o'rganish to'g'ri xulosalar chiqarishga ko'mak beradi. Bu o'rinda bir harf o'zgarishiga bog'liq tarzdagi bir so'zga emas, g'azalning kompozison butunligiga ta'sir ko'rsatgan arxitektonik o'zgarishlarga e'tibor qaratish maqsad bo'lishi kerak.

Asosiy qism

Matnshunos olim Hamid Sulaymon Alisher Navoiy lirikasini nashrga tayyorlash uchun eng mo'tabar manbalardan foydalanadi. Olimning o'zi “Xazoyin ul-maoniy”dagi to'rt devon matnini tiklash uchun 27ta qo'lyozma asosida ishlaganini e'tirof etgandi [Сулаймонов 1959, 15 – 17]. Xususan, “Favoyid ul-kibar” devoni uchun O'zbekiston, Rossiya, Hindiston, Ozarboyjon, Tojikistonda saqlanuvchi 11ta qo'lyozmani asos qilib olganini aytadi. Ular sirasidan eng mo'tabarlari – Sankt-Peterburgdagi 55-raqamli kulliyot (1499-yil 10-iyulda Hirot shahrida ko'chirilgan), Tojikiston FAdagi 1990 raqamli qo'lyozma (1499–1500-yillari ko'chirilgan) va O'zR FA ShI 677 raqamli “Xazoyin ul-maoniy” qo'lyozmasi (XV asr oxiri, XVI asr boshlari).

Ko‘rinadiki, olim Alisher Navoiy asarlari matnini mukammal holatda kitobxonga yetkazish uchun ko‘plab manbalar ustida ishlaydi. 1959-1960-yillardagi “Xazoyin ul-maoniy” nashrida Hamid Sulaymon, asosan, sobiq ittifoqdagi qo‘lyozmalardan foydalangani, biroq keyingi yillarda yana ikki kulliyotning fotonusxasi qo‘lga kiritilgani va qayta tekshirilib, o‘zgarishlar kiritilgani haqida ma‘lumot beradi [Сулаймонов 1959, 15 – 17].

Bugungi kunda Alisher Navoiy asarlari matnshunosligida uchta kulliyot alohida mo‘tabar manba sifatida qadrlanib, e‘tirof etilmoqda:

1. Turkiya davlati To‘pqopi kutubxonasidagi Ravon 808-raqamli kulliyot. Ushbu kulliyot 1496/97–1499/1500-yillari Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan Hirotida ko‘chirilgan.

2. Parijdagi 316–317-raqamli kulliyot. 932–933/1526/27-yillari Hirotida kotib Ali Hijroniy tomonidan ko‘chirilgan.

3. Turkiya davlati Sulaymoniya Fotih kutubxonasidagi 4056 raqamli kulliyot.

Olimlar har uch kulliyotning tarkibi, tuzilishi, ilmiy qimmatini borasida o‘zlarining muhim fikrlarini bildirib o‘tishgan [Мирзаахмедова 1968, 90–91; Ҳакимов 1980, 9–16; Ҳакимов 1988, 74 – 77; Сулаймон 1981, 191–194; Мадалиева 2021]. Bugungi kunda matnshunoslar aynan mukammal kulliyot sifatida Ravon 808 raqamli manbani asos qilib olishga intilmoqdalar.

Kulliyotlardagi devon matnlarini kuzatish ulardagi g‘azallar baytlarida muayyan farqlar borligini ko‘rsatadi. Dastlab kulliyotlardagi boshqa devonlarda uchramaydigan baytlarni ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiq. Kulliyotlar sirasida Parij nusxasi fanda hozirgacha ma‘lum bo‘lmagan yangi baytlar mavjudligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Parij va Sulaymoniya kulliyotidan tushib qolgan yoki ularga yangi kiritilgan baytlar

Parij kulliyoti 1526/27-yillari Hirotida Ali Hijroniy tomonidan ko‘chirilgan. Fanga ushbu kulliyotning Alisher Navoiy tiriklik payti Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan ko‘chirilgan (va hozirda) Ravon 808 raqamli (kulliyot deb nomlangan) kulliyotdan 26 yil keyin kitobot qilingani (ko‘chirilgani) ma‘lum. Bu paytlari temuriylar davlati tanazzulga uchrab, Shayboniyxon saltanati ham ko‘pga bormagan bo‘lsa-da, Hirot kitobatchilik san‘ati an‘analarini davom ettirayotgan xattotlar bor edi. Tabiiyki, bu davrda Hirotida Alisher Navoiy asarlarining asl nusxalari bo‘lgan, Ali Hijroniy ulardan

foydalangan. Hatto Alisher Navoiy shaxsan o'zi rahbarligida tartib berilgan, avtograf nusxa deb qaraluvchi Ravon 808 raqamli kulliyotda ham uchramaydigan ayrim baytlarning mavjudligi, uni ko'chirishga Ravon nusxadan oldingi boshqa manbalar ham asos qilib olinganini ko'rsatadi. Ali Hijroniy matni yozuv uslubining ravonligi, nafisligi, harflarning yoyiq berilishi bilan e'tiborni tortadi, bu holat ayni damda matnning o'qilishini osonlashtiradi.

O'zida 26ta asarni jamlagan uch kulliyotda asarlar ketma-ketligi, devonlarda g'azallarning berilish tartibi aynan bir xil bo'lsa-da, ularda bir qancha farqli baytlar mavjudligi kuzatiladi. Quyida ushbu farqlarni ko'rib chiqamiz:

1. *Fig'onki, hajridin o'ldi o'kush alam bizga* deb boshlanuvchi 27-g'azaldagi maqtadan oldingi bir bayt Parij nusxasida mavjud emas:

فنا می نی اگر پیر دیردین تاپساق،
سینوق سفال کوپ آرتوق که، جام جمبیزگا.

*Fano mayini agar piri dayrdin topsaq,
Sinuq safol ko'p ortuqki, jomi Jam bizga.*

2. *Qachon maktabda ul mohi muaddab* misrasi bilan boshlanuvchi 46-g'azal Ravon 808, Sulaymoniya 4056 raqamli kulliyot va joriy yozuvdagi 10 tomlik nashrda 7 baytdan iborat. Maqta'dan oldin kelgan quyidagi bayt joriy nashrlarda yo'q, faqat Parij nusxasida bor:

قچن بیهوش اولورمین اوزلوکومدین،
اگر تولدورسنگ، جامیم لبالب.

*Qachon behush o'lurmen o'zlukumdin
Agar to'ldursang jomim labolab.*

3. *Bog'ingga yetmasun oshub xazondin, yo Rab* deb boshlanuvchi 47-g'azaldagi 3-bayt Parij nusxasida uchramaydi:

دردینی بس که نهان توتتوم - اولارمېن پنهان،
واقف ابتگیل آنی بو درد نهاندین، یا رب.

*Dardini baski nihon tuttum - o'larmen pinhon,
Voqif etgil oni bu dardi nihondin, yo Rab.*

4. *Nukta ko'p surdung, zamone la'li jonparvarni yop* misrasi bilan boshlanuvchi 68-g'azaldagi maqta'dan oldingi bayt Fotih nusxasida va joriy nashrda mavjud, ammo Ravon va Parij nusxasida berilmagan:

عشق سرّین کیمساتحریر ایتمادی، تقریر هم،
ای مدرّس، دیما کوپ افسانه و دفترنی یاپ.

*Ishq sirrin kimsa tahrir etmadi, taqrir ham,
Ey mudarris, dema ko‘p afsona-yu daftarni yop.*

5. *Ey musallam, sanga har yaxshi sifat* misrasi bilan boshlanuvchi 88-g‘azaldagi 2-, 3-misralar Parij nusxasida yo‘q:

بو صفاتینگ بيله یوق سېن کيبي ذات
خط سنگا خضر و لبینگ - چشمه خضر

Bu sifoting bila yo‘q sen kibi zot.

Xat sanga Xizr-u labing – chashmai Xizr.

Shuning hisobiga baytdagi misralar 1-, 4-baytlar hisobiga *Ey musallam, sanga har yaxshi sifat, /Nutqung – ul chashma aro obi hayot* shaklida berilgan. Natijada, Parij nusxasida 7 baytdan iborat g‘azal 6 baytli g‘azalga aylangan.

6. *Ko‘ngulda zulm bila qilma yuz bino ihdos* deb boshlanuvchi 89-g‘azalning keyingi bayti Fotih nusxasida uchramaydi:

جفا بناسینی بوز غیل، نېدین که محدث ابرور،
خلاف شرعی بنا قیلدینگ اولا احداث.

Jafo binosini buzg‘il, nedinki muhdis erur,

Xilof shar‘i bino qilding avvalo ihdos.

Demak, bu bayt nashrga boshqa manbalardan olingan.

7. *Zihi shahdi no‘shung bag‘oyat malih* misrasi bilan boshlanuvchi 105-g‘azalning 2-, 3- misralari Parij nusxasidan tushib qolgan:

مسلسل سوزونگ بی نهایت ملیح
شکر دېک لبینگ کېلدى عشق اهلیدین

Musalsal so‘zung benihoyat malih.

Shakardek labing keldi ishq ahlidin.

Natijada *Zihi shahdi no‘shung bag‘oyat malih, /Demak shukr shirin, shikoyat malih* shaklida berilib, 7 baytli g‘azal 6 baytga tushib qolgan.

8. *Vaslidin chun multafit ko‘proq bo‘lur furqatda yor* misrasi bilan boshlanuvchi 137-g‘azaldagi maqta‘dan oldingi bayt faqat Parij nusxasida uchraydi:

Jon aziz asru fido-yu yori joni bo‘lg‘ali

Der na ekin oshiqi bechora ul jonni netar.

E’tiborni tortadigan jihat bu bayt joriy nashrlarda mavjud emas.

9. *Ul malaksiymoki, husn ichra pariy monandidur* deb boshlanuvchi 143-g‘azaldagi 5-bayt faqat Fotih nusxasi va joriy nashrlarda mavjud. Ravon va Parij nusxalarida ushbu misralar

uchramaydi:

اول مسیحادین نېتیب فارغ بولای کیم، هر نفس
هجر تیغیدین کونگول یوز قتله حاجتمندی دور.

*Ul Masihodin netib forig' bo'laykim, har nafas
Hajr tig'idin ko'ngul yuz qatla' hojatmandidur.*

Ayni shu g'azalning maqta'dan oldingi bayti faqat Parij nusxasida berilgan, joriy nashrlarga ham kiritilmagan:

*Demangiz har kecha hajrinda necha qon yig'lading,
Qonima har dam kiran ul la'li shakkarxandidur.*

10. *Bargi nay to'n ichida nol kibi beli nihondur* misrasi bilan boshlanuvchi 195-g'azaldagi maqta'dan oldingi bayt faqat Parij nusxasida kelgan, joriy nashrlarda yo'q:

*Dayr pirig'a muridimki inoyatlari cho'xtur,
Har nafas davlatidin manga dusad aysh nihondur.*

11. *Tengri bermish ul pariy paykarga andog' tor og'iz deb* boshlanuvchi 219-g'azaldagi oxirgi maqta bayt Parij nusxasida mavjudligi va g'azal mazkur kulliyot asosida to'ldirilgani qayd etilgan:

ای نوایی، یارنینگ کۆنگلی توتولدی نالمدین،
کاش هرگز آچماغای ابردیم مېن افکار آغیز

*Ey Navoiy, yorning ko'ngli tutuldi noladin,
Kosh hargiz ochmag'ay erdim meni afgor og'iz.*

12. *Meni ishq ichra degan oqil-u farzona emish* misrasi bilan boshlanuvchi 267-g'azaldagi mazkur bayt Parij nusxasida uchramaydi:

قصر اول حسن شهی نینگ ابرور انداق عالی
که فلک کنگرہسی قصریغہ دندانہ اېمیش.

*Qasri ul husn shahining erur andoq oliy
Ki falak kungurasi qasrig'a dandona emish.*

13. *Bizing shaydo ko'ngul bechora bo'lmish* misrasi bilan boshlanuvchi 268-g'azaldagi 2-, 3-misralar Parij nusxasida tushib qolgan:

ملالت دشتیدا آوارمبولمیش.
انگا بس کیم یاغار تاش اوستیده تاش،

*Malolat dashtida ovora bo'lmish.
Anga baskim yog'ar tosh ustida tosh.*

Natijada 7 baytli g'azal 6 baytli g'azalga aylangan.

14. *Qilg'ay ul orazni ko'rmakdin meni hayronni zabt deb* boshlanuvchi matlali 281-g'azalning oxirgi bayti 20 va 10 jildlik

nashrlarga Parij nusxasidan olib kiritilgan, qolgan ikki kulliyotda bu bayt uchramaydi. Natijada u 10 baytli g‘azalga aylangan:

ساقيا، می تولا- تولا ببرماکین عزم ایلادینگ،
اوسروک اولدوم کیم، قیلادور صحبت جانانی ضبط.

*Soqiyo, may to‘la-to‘la bermakin azm aylading,
Usruk o‘ldumkim, qiladur suhbatı jononni zabt.*

15. *Yuzung hajrida kim chekti fig‘on-u zor men yanglig‘?*
deb boshlanuvchi 298-g‘azalning maqta‘dan oldingi bayti 20, 10 tomliklarga Parij nusxasidan olib kiritilgan. Ravon va Fotih nusxasida ushbu bayt uchramaydi.

اگر بلبل گلستان ایچرهموردی خارددین آزار،
و لېکن کورمادی، ای لالهرخ، آزار مېن ینگلیغ.

*Agar bulbul guliston ichra ko‘rdi xordin ozor,
Va lekin ko‘rmadi, ey lolarux, ozor men yanglig‘.*

Parij nusxasidagi mazkur bir bayt qo‘shilib, joriy nashrlarda u 10 baytli g‘azalga aylangan:

15. *Choqin o‘ti qila olmas g‘amim tuniniyuruq* deb boshlanuvchi 311-g‘azaldagi 10-, 11-misralar Ravon nusxasida berilmagan:

که یوق تحملی خواه ایسیغ اولسا، خواه ساووق.
بسی یاروغلوغ امید اولدی اوپله روزنهدین،

*Ki yo‘q tahammuli xoh issig‘ o‘lsa, xoh sovuq.
Base yorug‘lug‘ umid o‘ldi o‘yla ravzanadin.*

16. *Ne bahor o‘lg‘ayki, nolam ra‘d erur, ashkim yog‘in* misrasi bilan boshlanuvchi 497-g‘azalning Parij nusxasida 2-, 3- misralari uchramaydi:

برق دېر کورگان جهان ایچرهممیت اوت سالماغین.
ناتوان باشیمغه یاغدورماقدین اوزگاقصدی یوق.

*Barq der ko‘rgan jahon ichra damim o‘t solmog‘in.
Notavon boshimg‘a yog‘durmoqdin o‘zga qasdi yo‘q.*

17. *Dayr ko‘yida bugun asru alolo erdi* deb boshlanuvchi 612-g‘azal 14 baytdan tashkil topgan katta g‘azal. Parij nusxasida uning 10-bayti tushib qolgan:

کیم مغانه می ایچیب باغلادی زئاری رست،
بت خود اول ایلاگالی سجدهمهیا اپردی.

*Kim mug‘ona may ichib bog‘ladi zunnori rust,
But xud ul aylagali sajda muhayyo erdi.*

Yuqoridagi baytlararo farqlar ko‘rib chiqilganda, quyidagi

natija ko'zga tashlanadi:

a) faqat Parij nusxasida mavjud, lekin joriy nashrlarga o'tmagan baytlar, misralar;

b) faqat Parij nusxasida mavjud va joriy nashrlarga kiritilgan baytlar;

c) Parij nusxasidan tushib qolgan, lekin boshqa qo'lyozmalarda mavjud bo'lgan baytlar;

d) Ravon va Parij nusxalarida mavjud bo'lmagan, faqat Fotih nusxasida uchraydigan va joriy nashrlarga ham kiritilgan baytlar.

Ma'lum bo'ladiki, (biz uchun) yangi (hisoblangan) baytlar, asosan, Parij kulliyotida uchraydi. Hatto ular orasidan chamasi yetti bayt mutlaqo yangi, joriy nashrlarga kiritilmay qolganlari esa to'rt baytni tashkil etadi. Fotih nusxasidagi baytlar esa joriy nashrlarda to'liq berilgan. Parij kulliyotidagi yangi baytlarning ayrimlari kirgani holda, ayrimlari (4 bayt) nashrlarga kiritilmagan. Eng ko'p tushirib qoldirilgan misralar ham Parij kulliyotiga to'g'ri keladi, bunda xattot baytlarni emas, ko'proq misralarni tushirib qoldirganini nazarda tutib, katta matnni ko'chirish jarayonida she'r qatorlarida adashgan deyish ham mumkin.

Kulliyotlardagi baytlarning farqlari haqidagi ma'lumotlar keyingi asrlarda ko'chirilgan qo'lyozma nusxalar qiyoslariga nisbatan jiddiy e'tiborni talab qiladi. Sababi – tushirib qoldirilgan yoki kiritilgan baytlar matnshunoslikda keyingi davrlardagi qo'lyozmalarga nisbatan katta ilmiy qimmat kasb etadi. Fanda mo'tabar sanalgan har uch kulliyotdagi she'rlar soni, tartibi bir xil. Biroq ulardagi biz aniqlagan matniy tafovutlar ularning ko'chirilishi uchun asos bo'lgan tayanch manbalar qaysi va hozir ular qayerda, degan savollarni yuzaga chiqaradi.

Parij kulliyotidagi ayrim baytlarning olimlar Alisher Navoiyning o'zi tasnif qilgan deb qaraluvchi 808 raqamli kulliyotda ham uchramasligi e'tiborni tortadi. 808 raqamli kulliyotni Alisher Navoiyning o'zi tasnif qilib, tushirib qoldirilgan baytlarni shoirning o'zi ongli tarzda kiritmay, matniy tahrir qilgan bo'lishi mumkin. Ayrim o'rinlarda 808 raqamli kulliyotdagi 7 baytli g'azal, Parij nusxadagi bir baytni qo'shish bilan 8 baytli g'azalga aylangan. Parij kulliyotini ko'chirgan Ali Hijroniy Alisher Navoiy yashagan davrdan 25 yil keyin Hirotda ko'chiradi. Uning qo'lida Navoiy devonlarining mo'tabar nusxalari bo'lgan va boshqa qo'lyozmalarda bo'lmagan baytlarni ulardan ko'chirgan deb taxmin qilish mumkin. Ehtimol shoirning o'zi tahrirlash payti ortiqcha baytlardan kechgandir. Biroq bugungi avlod uchun shoirning bu misralari juda qimmatli.

Gʻazal kompozitsiyasiga koʻra aksariyat tushib qolgan hamda joyi oʻzgargan baytlar maqtaʼdan oldingi lirik chekinish qismiga toʻgʻri kelmoqda. Aynan lirik chekinish (yaʼni, olimlar orasida bahsli boʻlgan begona bayt) qismidagi tasvirlangan voqelik, mazmundan ortga qaytishi, chekinishi, xulosa tomon oʻtishi gʻazaldagi yoʻqolgan baytni deyarli sezdirmaydi. Voqeaband gʻazalda esa bu holatni mazmundagi ketma-ketlikning buzilishi orqali anglash mumkin. Eʼtibor berilsa, oʻsha oʻrni almashgan gʻazallarning koʻplari musalsal va yakpora gʻazallarga toʻgʻri keladi. Shuning uchun tadqiqotchi oʻrni almashgan gʻazalni ishonchli manbani koʻrmaguncha aniq xulosa chiqarishi qiyin.

Shu oʻrinda yangi kiritilgan baytlardan ayrimlarining gʻazal butunligidagi oʻrni va mazmunga taʼsirini koʻrib oʻtamiz. Jumladan, *Vaslidin chun multafit koʻproq boʻlur furqatda yor* deb boshlanuvchi 137-gʻazalning quyidagi bayti faqat Parij nusxasida bor, joriy nashrlarda va boshqa qoʻlyozmalarda uchramaydi:

Jon aziz asru fido-yu yori joni boʻlgʻali
Der na ekin oshiqi bechora ul jonni netar.

“Navodir un-nihoya”dan “Favoyid ul-kibar”ga oʻtgan mazkur gʻazal bir oz muammoli. Gʻazalning *Soʻz diyor-u yordin soʻrmongki, hijron dashtida / Qolgʻali bekas unut boʻlmish manga yor-u diyor* deb bitilgan 6-bayti 20 tomlik nashrda matn osti iqtibosida shunday izoh bilan berilgan: “Bu gʻazal “Navodir un-nihoya” devonidan kiritilgan boʻlib, qoʻlyozmada “Soʻz-u yor-u yordin soʻrmongki, hijron dashtida / Qolgʻali bekas unut boʻlmish manga yor-u diyor” bayti bor, ammo u “Xazoyin ul-maoniy”ning XV–XVI asr qoʻlyozmalarining birortasiga ham kiritilmagan, shuning uchun mazkur bayt tushirib qoldirildi”, deyiladi. Bayt ushbu 20 tomlik nashrda matndan tushirib qoldirilgan boʻlsa-da, oxirgi 10 tomlik nashrda oltinchi bayt oʻrnida, ortiqcha izohsiz berilgan. Natijada 10 tomlikda iqtibosda emas, sheʼr matnidan oʻrin olgan bayt bilan gʻazal 7 baytli gʻazalga aylangan. Parij qoʻlyozmasidagi mazkur bayt bilan sheʼr 8 baytlidir.

Biroq gʻazal butunligiga eʼtibor berilsa, Parij kulliyotidagi oʻsha bir bayt gʻazalga ortiqchadek koʻrinadi. Chunki gʻazal matnidagi qofiyalar *ixtiyor, yor, shiyor, iyor, baxtiyor, diyor, tiyor* boʻlib, **yo** harfi raviy boʻlib kelgan. Bu ortiqcha baytda esa qofiya *netor* boʻlib, baytlar bilan tutashuvchi raviy harfi mos kelmaydi. Yanada aniqlik kiritish uchun gʻazalni mantiqiy tahlil qilish lozim. Demak, Parij nusxadagi mazkur baytni Ravon nusxasiga Alisher Navoiyning oʻzi kiritmagan boʻlishi ehtimoli ham bor.

Baytlari almashgan g'azallar xususida

Devonning joriy yozuvdagi nashrlarida baytlari almashgan g'azallar anchagina. Ko'p xususiyatlariga ko'ra Ravon va Parij kulliyoti juda yaqin keladi. Parij matnidagi so'zlar aksariyat Navoiy o'zi tasniflagan deb qaraluvchi 808 raqamli kulliyot matni bilan deyarli o'xshash. Fotih nusxasida esa jiddiy farqlar bor. Matndagi ayrim farqli so'zlar Ravon va Parij nusxasida bir xil, Fotih nusxasida esa farqlanadi. Bundan Ali Hijroniy 808 raqamli kulliyotdan ko'chirganmi, degan fikr ham tug'iladi, biroq ayrim she'rlar hajmida farqlar borligi Ali Hijroniyniing qo'shimcha manbalardan foydalanganini ko'rsatadi. U bu davrda Hirotida mavjud bo'lgan "Xazoyin ul-maoniy" devonlaridan ko'chirgan bo'lishi kerak. E'tiborlisi, har uch kulliyot matni va joriy nashr qiyoslab tekshirilganda, Ravon va Parij nusxalari bir tomon, Fotih nusxasi va joriy nashrlar boshqa tomon bo'ladi. Joriy nashrdagi farqlar so'zlarning o'zgarishi va baytlarning o'rin almashib kelishiga ko'ra Fotih nusxasiga juda yaqin.

Quyida baytlari almashgan g'azallardan ayrimlarini keltiramiz. Jumladan, 438-g'azaldagi farqlar quyidagicha:

Ravon va Parij kulliyotida	Fotih nusxasi va joriy nashrda
Tilab jannatni, o'tmon do'st ko'yida gadolig'din, Muhaqqar bog' uchun kechmak bo'lurmu podsholig'din.	Tilab jannatni, o'tmon do'st ko'yida gadolig'din, Muhaqqar bog' uchun kechmak bo'lurmu podsholig'din.
Bo'lub begona, ul may dog'i to xirqam-dadur bildim, Ki dog'i hajr emish oxir natija oshnolig'din.	Bo'lub begona, ul may dog'i to xirqam-dadur bildim, Ki dog'i hajr emish oxir natija oshnolig'din.
Firoqing ichra qolg'ach, o'lganimga qilma hayratkim, O'lumdin o'zga ish yo'q, jismg'a jondin judolig'din.	Firoqing ichra qolg'ach, o'lganimga qilma hayratkim, O'lumdin o'zga ish yo'q, jismg'a jondin judolig'din.
Ajoyib ibtilodur bandi zulfung ichra jonlarg'a, Ki bor o'lmakcha bir soat najot ul mubtalolig'din.	Ajoyib ibtilodur bandi zulfung ichra jonlarg'a, Ki bor o'lmakcha bir soat najot ul mubtalolig'din.
Yorut may lam'asidin xilvatimni bir kun, ey mug'kim, Yorug'lug' topmadim xilvatda yillar porsolig'din.	Jahon sho'xinki, el mahbubidur, aqd aylading, lekin Taammul qilki, ne lozim kelur bu kadxudolig'din.
Ko'zum andoq qorarmish tiyra zuhd ichraki, gar soqiy, Demon may tutsa, zahr ichkaymen oni ko'z qarolig'din.	Yorut may lam'asidin xilvatimni bir kun, ey mug'kim, Yorug'lug' topmadim xilvatda yillar porsolig'din.
Bu gulshan g'unchasida jola ermaskim, tish irjaytib Kular oshufta bulbul navhasig'a bevafo-lig'din.	Ko'zum andoq qorarmish tiyra zuhd ichraki, gar soqiy, Demon may tutsa, zahr ichkaymen oni ko'z qarolig'din.

Jahon sho‘xinki, el mahbubidur, aqd aylading, lekin Taammul qilki, ne lozim kelur bu kadx-udolig‘din.	Bu gulshan g‘unchasida jola ermaskim, tish irjaytib Kular oshufta bulbul navhasig‘a bevafo-lig‘din.
Navoiy, benavolig‘ shevasin berma ilik-dinkim, Navo har kimki istabtur, topibtur be-navolig‘din.	Navoiy, benavolig‘ shevasin berma ilik-dinkim, Navo har kimki istabtur, topibtur be-navolig‘din.

Devonning 1960-yildagi akademik nashrida ham xuddi shu tartibda [Навоий 1960, 443]. G‘azal baytlarida juda katta o‘zgarish yo‘q, atigi bir bayt o‘rni almashgan. Maqta‘dan oldingi lirik chekinishning yuqoriga chiqib ketishi g‘azal kompozitsiyasiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatgan. Maqta‘dan oldin joylashgan bayt bilan fikr tugamay qolgan va to‘g‘ri xulosaga o‘tilgan.

Quyidagi mashhur bo‘lgan 373-g‘azalda ham bir bayt o‘rni almashgan.

Ravon va Parij nusxasida:

*Yog‘lig‘in eykim, tikarsen, igna mujgonimni qil,
Naqsh etarda tori aning rishtayi jonimni qil.
Gar desang har yon qizil gullar qilay nusxat anga,
Ko‘ksim ochib, toza qonlig‘ dog‘i hijronimni qil.
Istasang torin qizil yoxud qaro qilmoqqa rang,
Ko‘z qarosin hal qilib, ko‘zdin oqar qonimni qil.*

Fotih nusxasi va joriy nashrda:

*Yog‘lig‘in eykim, tikarsen, igna mujgonimni qil,
Naqsh etarda tori aning rishtayi jonimni qil.
Istasang torin qizil yoxud qaro qilmoqqa rang,
Ko‘z qarosin hal qilib, ko‘zdin oqar qonimni qil.
Gar desang har yon qizil gullar qilay nusxat anga,
Ko‘ksim ochib, toza qonlig‘ dog‘i hijronimni qil.*

Manbalarda faqat 2 va 3-bayt o‘rni almashgan. G‘azal mazmuni voqeabandlikda, amaliy harakatlarda davom etgani uchun farqni bemalol sezish mumkin. Ravon va Parij nusxalaridagi tartibda so‘zdagi harakatlarda tikilayotgan naqsh jarayoni yanada mantiqiy davom etgan.

Xulosa

Umuman, manbalarda o‘rni almashgan g‘azallar adadi anchagina. Ularni manba asosida o‘z o‘rniga qo‘yib, asoslab, g‘azal butunligini ta‘minlash matnshunoslikning zarur vazifalaridir. Matniy

tekshirishlar ustoz olimlarning nuqsonlarini izlash niyatida emas, ular tayangan manbalar nuqtayi nazaridan ham ko'rib o'tilishi maqsadga muvofiqdir.

Alisher Navoiy asarlarining mukammal nashrlari hamisha mo'tabar qo'lyozmalarga bog'liq bo'lgan. "Xamsa" dostonlarining mukammal nasriy bayonlarini tayyorlash ishlari ham ilmiy-tanqidiy matnlarga, asliyatga yaqin mukammal nashrlarga bog'liq holda takomillashib borgan. Devonlarning barchasini ustoz olimlar mehnatini qadrlagan holda kulliyotlar, nodir manbalar bilan qiyosiy-matniy tekshirish lozim. Sababi joriy nashrlar ko'proq Fotih nusxasiga tayanilgani ko'rinadi. Ularni yuqoridagi har ikki manba bilan solishtiriganda, qiyosiy farqlar seziladi. Yana erishilishi mumkin bo'lgan ehtimollardan biri – yangi baytlarning topilishi. Parij kulliyotida yangi kiritilgan baytlarning boshqa manbalar va nashrlarda uchramasligi jihatidan ham manbalarni baytma-bayt qiyoslash muayyan natijalarni berishi mumkin. Qolaversa, baytlari almashgan g'azallarni, boshqa lirik janrlarni ham tartiblash imkoni amalga oshgan bo'lardi.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий. 1960. *Хазойин ул-маоний: Фавойид ул-кибар*. IV жилд. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий. 1990. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 6-жилд: *Хазойин ул-маоний: Фавойид ул-кибар*. Илмий-танқидий матн асосида нашрга тайёрловчи: Ҳамид Сулаймон. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий. 2011. *Фавойид ул-кибар. Хазойин ул-маоний*. Тўртинчи девон. Тошкент: Tamaddun.
- Алишер Навоий. 2021. *Фавойид ул-кибар. Хазойин ул-маоний*. Тўртинчи девон. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.
- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo'lyozma. To'pqori saroyi kutubxonasi. Ravon 808 inv. raqam.
- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo'lyozma. Fransiya Milliy kutubxonasi. Suppl. Turc. 317 inv. raqam.
- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo'lyozma. Sulaymoniya kutubxonasi, Fotih fondi. 4056 inv. raqam.
- Ҳакимов, Муҳаммаджон. 1980. "Алишер Навоий "Куллиёт"ини илмий тавсифлаш тажрибасидан". *Адабий мерос* 3 (15): 9 – 16. Тошкент.
- Ҳакимов, Муҳаммаджон. 1988. "Шарқ китобат ишида "Куллиёт"нинг ўрни". *Адабий мерос* 3(45): 74 – 77. Тошкент.
- Мирзааҳмедова, Марғуба. 1968. "Навоий асарлари куллиёти". *Ўзбек тили ва адабиёти* 3: 90 – 91. Тошкент.
- Мадалиева, Ойсара. 2020. "Алишер Навоий куллиётининг Эрон нусхалари". *"Алишер Навоий мероси ўзбек шарқшунослиги*

талқинида” илмий амалий анжуман тўплами, 2: 97 – 103. Тошкент.

Мадалиева, О. 2021. *Алишер Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қиёсий тадқиқи*. Тошкент: Donishmand ziyosi.

Külliyat-ı Nevayî: İnceleme, Tıpkıbasım. Kut Günay. İstanbul, Türkiye Yazma Eserler Kurumu. 2020.

Сулаймон, Ҳамид. 1981. “Алишер Навоийнинг Париж куллийети”. *Шарқ юлдузи* 2: 191 – 194. Тошкент.

Сулаймон, Ҳамид. 1973. “Алишер Навоий куллийети қўлёзмалари тадқиқотидан”. *Адабий мерос* 3: 83 – 93. Тошкент.

Сулаймонов, Ҳ. 1959. “Ҳазойинул-маоний” текстларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари. Алишер Навоий. “Ҳазойинул-маоний”. Т. 1.: “Ғаройибус-сиғар”. Тошкент: Ўз ССР ФА нашриёти, 17.

Regarding the different couplets in the manuscript sources of “Favoyid ul-kibar”

Ozoda Tojiboyeva¹

Abstract

The divans of Alisher Navoi were prepared and published on a scholarly basis by the eminent scholar Hamid Sulaymonov. In recent years, the expanding availability of various kulliyats comprising the works of Alisher Navoi has contributed to the steady development of comparative textual studies. Consequently, the comparative examination of all available sources, the identification of their distinctive features, and the determination of the scholarly value of each source have become pressing academic objectives.

This article presents a comparative textual analysis of the ghazals included in *Favoyid ul-kibar* based on three kulliyats regarded as the most reliable and authoritative in Navoi studies: the Ravon, Paris, and Fatih manuscripts. The study substantiates the sources of the rearranged ghazals, examines their presentation in current editions, and elucidates the reasons underlying the observed textual variations.

Key words: *divan, kulliyat, manuscript, ghazal, bayts, comparative textual analysis, modern editions.*

¹ Ozoda T. Tojiboyeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: ozoda@navoiy-uni.uz

ORCID-ID: 0000-0003-4742-8357

For citation: Tojiboyeva, O. T. 2026. “On the Variant Couplets in the Sources of “Favoyid ul-kibar”. *Golden scripts* 1: 23 – 36.

References

- Alisher Navoiy. 1960. *Xazoyin ul-maoniy: Favoyid ul-kibar*. IV jild. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1990. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 6-jild: *Xazoyin ul-maoniy: Favoyid ul-kibar*. Ilmiy-tanqidiy matn asosida nashrga tayyorlovchi: Hamid Sulaymon. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 2011. *Favoyid ul-kibar. Xazoyin ul-maoniy*. To'rtinchi devon. Toshkent: Tamaddun.
- Alisher Navoiy. 2021. *Favoyid ul-kibar. Xazoyin ul-maoniy*. To'rtinchi devon. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo'lyozma. To'pqopi saroyi kutubxonasi. Ravon 808 inv. raqam.
- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo'lyozma. Fransiya Milliy kutubxonasi. Suppl. Turc. 317 inv. raqam.
- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo'lyozma. Sulaymoniya kutubxonasi, Fotih fondi. 4056 inv. raqam.
- Hakimov, Muhammadjon. 1980. "Alisher Navoiy "Kulliyot"ini ilmiy tavsiflash tajribasidan". *Adabiy meros* 3 (15): 9 – 16. Toshkent.
- Hakimov, Muhammadjon. 1988. "Sharq kitobat ishida "Kulliyot"ning o'rni". *Adabiy meros* 3(45): 74 – 77. Toshkent.
- Mirzaahmedova, Marg'uba. 1968. "Navoiy asarlari kulliyoti". *O'zbek tili va adabiyoti* 3: 90 – 91. Toshkent.
- Madaliev, Oysara. 2020. "Alisher Navoiy kulliyotining Eron nusxalari". *"Alisher Navoiy merosi o'zbek sharqshunosligi talqinida"* ilmiy amaliy anjuman to'plami, 2: 97 – 103. Toshkent.
- Madaliev, O. 2021. *Alisher Navoiy devonlari qo'lyozmalarining tarkibiy-qiyosiy tadqiqi*. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Külliyat-ı Nevayi: İnceleme, Tıpkıbasım. Kut Günay. İstanbul, Türkiye Yazma Eserler Kurumu*. 2020.
- Sulaymon, Hamid. 1981. "Alisher Navoiyning Parij kulliyoti". *Sharq yulduzi* 2: 191 – 194. Toshkent.
- Sulaymon, Hamid. 1973. "Alisher Navoiy kulliyoti qo'lyozmalari tadqiqotidan". *Adabiy meros* 3: 83 – 93. Toshkent.
- Sulaymonov, H. 1959. "Xazoyinul-maoniy" tekstlarini o'rganish va nashrga tayyorlashning asosiy masalalari. Alisher Navoiy. "Xazoyinul-maoniy". T. 1.: "G'aroyibus-sig'ar". Toshkent: O'z SSR FA nashriyoti, 17.